

ELVIN TOFFLERNING POSTINDUSTRIAL JAMIYAT HAQIDAGI QARASHLARI

Abduraximova Dilaram

ANNOTATSIYA

Maqolada Elvin Tofflerning (1928-2016) qarashlari ko'rib chiqiladi. Toffler futurologiyaga tegishli bo'lib, u o'z e'tiborini umrbod jamiyatdagi texnologik inqilobni, zamonaviy intensiv ishlab chiqarish jarayonida madaniyatning o'zgarishini, korporativ iqtisodiy infratuzilmani, faol demokratlashtirishni o'rganishga qaratadi.

Kalit so'zlar: *Elvin Toffler, futurologiya, madaniyat o'zgarishlari, "Uchinchi to'lqin" nazariyasi*

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются взгляды Элвина Тоффлера (1928-2016). Тоффлер принадлежит к футурологам, которые концентрирует свое внимание на исследовании роли технологической революции в жизни общества, трансформации культуры в процессе современного интенсивного производства, корпоративной экономической инфраструктуры, активной демократизации.

Ключевые слова: *Элвин Тоффлер, футурология, культурные изменения, теория «Третьей волны».*

ABSTRACT

In article is considered glances Elvin Toffler (1928-2016). Toffler belongs to futurology, which concentrates its attention on study dug the technological revolution in lifers society, transformations of the culture in process modern intensive production, corporative economic infrastructure, active democratization.

Key words: *Elvin Toffler, futurology, transformations of the culture, "third wave" theory*

Postindustrial jamiyat ijtimoiy falsafa va sotsiologiya fanlari doirasida tarixiy jarayonga sivilizatsion yondashuvni hamda sivilizatsiya taraqqiyotining hozirgi bosqichini ifodalash uchun qo'llaniladigan tushuncha hisoblanadi. Postindustrial jamiyat termini birinchi bo'lib amerikalik sotsiolog, futurolog Daniel Bell tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan [4, 332]. D.Bell tomonidan yaratilgan postindustrial jamiyatning asosiy konsepsiyasi keyinchalik boshqa sotsiolog futurologlar tomonidan ikki yo'nalishda rivojlantirildi. Birinchidan, postindustrial jamiyat konsepsiyasining yevropacha modelini ishlab chiqishga asoslangan radikal yo'nalish J.Furastye, Turen

tomonidan; ikkinchidan, postindustrial jamiyat amerikacha modelini yaratishga yo'naltirilgan liberal yo'nalish Gelbreyt, K.E.Boulding, G.Kan, E.Toffler tomonidan rivojlantirildi. Postindustrial jamiyat konsepsiyasining radikal yo'nalishi – yuqori g'oyaviyligi va ijtimoiy-madaniy muammolarga maxsus qiziqishi bilan xarakterlansa, liberal yo'nalish – asosiy e'tiborni amaliy tadqiqotlarga hamda hokimiyat, urush, boshqaruv muassasalari, oila, ommaviy kommunikatsiya kabi postindustrial jamiyat doirasida rivojlanadigan ijtimoiy-siyosiy strukturaviy tashkiliy xarakterdagi hodisalarning modellarini yaratishga qaratadi.

Hozirgi sivilizatsiyaviy taraqqiyotning global xususiyati shundan iboratki, dunyo xaritasi xilma-xil tamoyillar asosida o'z shaklu shamoyiliga ega bo'ldi. Xususan siyosiy xaritada davlatlar, ularning chegaralari aks etsa, tabiiy xaritada qit'a va mintaqalar, qazilma boyliklar, daryo va ko'llar, o'rmon va dengizlarga alohida e'tibor berildi. Lekin shu o'rinda qayd etish kerakki, xaritalardagi chegarani tan olmaydigan umumbashariy ahamiyatga molik universal texnologiyalar, axborot tarmoqlari, jahonshumul muammolar yuzaga keldi. Ular ko'p hollarda xalqaro siyosat, davlatlararo munosabatlarni belgilaydigan, xalqlarning taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadigan bo'lib qoldi. Bugungi dunyoning global mafkuraviy manzarasi, undagi g'oyalar kurashi, mafkuraviy poligonlarning butun-butun xalqlar taqdiriga ta'siri bilan bog'liq, masalalar ana shunday olamshumul ahamiyatga ega. Bu boradagi muammolarni bilish, begona, yot va zararli g'oyalar hurujidan ogoh bo'lish bugungi kunda har bir kishining burchi bo'lib, hayotiy zaruratga aylanib bormoqda. Aynan shu ma'noda Elvin Tofflerni bunday o'zgarishlar oqimini oldindan bashorat qilib bergan olim bo'lish bilan birgalikda mohir futurolog sifatida tilga olinishi bejiz emasligini anglash qiyin emas, albatta.

Bizga ma'lumki, Toffler bashorat qilganidek, XX asr oxiriga kelib jahon ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida yuz bergan tub o'zgarishlar o'ziga xos ziddiyatli ahamiyat kasb etdi. Xususan, jahonda o'zining ta'sir doirasiga ega bo'lgan ikki qutbli dunyoning barham topishi, nisbiy muvozanatning buzilishi jahonning global mafkuraviy manzarasini tubdan o'zgartirib yubordi. Buning yorqin dalili sifatida qayd etish mumkinki, sobiq sotsialistik lager o'rnida mustabid mafkura g'oyalaridan xalos bo'lgan yangi davlatlar yuzaga keldi, mustaqillikni qo'lga kiritgan xalqlar o'z milliy davlatlarini shakllantirdilar.

“Bugungi kunda aksariyat rivojlangan davlatlarning mafkurasi umuminsoniy qadriyatlar va demokratik tamoyillarga asoslanadi. Ularda tinchlik va taraqqiyot, inson haq-huquqlari va erkinligi, milliy va diniy totuvlik g'oyalari ustuvordir” [2, 20]. Toffler ham umumbashariy manfaat va maqsadlarni o'zida aks ettirgan mafkuraviy o'zgarishlarni insoniyat kelajagini strategik yo'nalishlarini belgilab olishda muhim

ahamiyat kasb etishini isbotlashga harakat qildi. Jumladan Toffler bu tamoyillarga asoslangan ezgu g'oyalar umuminsoniy manfaatlar bashariyatning asriy orzusi bo'lgan insoniyat sivilizatsiyasining yorug' kelajagi uchun xizmat qilishiga ishonch bildirib o'tadi.

Lekin, Tofflerning fikricha, insoniyat yechishi lozim bo'lgan ko'pgina muammolar mavjud. Toffler dunyoning global mafkuraviy manzarasida turli usul va vositalar orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgan tajovuzkor millatchilik, shovinizm, neofashizm, irqchilik, diniy ekstremizm kabi siyosiy kuchlar va oqimlar ildizining mavjudligini "Uchinchi to'lqin" nazariyasi orqali asoslab beradi, bu borada kerakli nazariy va amaliy takliflarni ishlab chiqishga erishadi. Haqiqatdan ham, bunday g'ayriinsoniy, buzg'unchi g'oyalar xalqlar boshiga so'ngsiz kulfatlar keltirib, insoniyatning tinchligi, osoyishtaligini buzib, odamlar boshiga turli balolar yog'dirganligini tarixiy dalillar orqali isbotlab beradi. Tofflerning fikrlariga qo'shilgan holda, hozirgi jamiyatning asosiy taraqqiyot mexanizimi ta'lim va tarbiya jarayonlari bilan aloqador ekanligini keltirib o'tish joiz deb o'ylayman. Bunday sharoitda esa xalqimizning barcha qatlamlariga berilayotgan bilimlar obyektiv, voqyelikni to'liq va to'g'ri aks ettirishi, jamiyat taraqqiyotiga, Vatanimiz va xalqimiz manfaatlariga, qadriyatlarni saqlashga xizmat qilishi lozim. Chunki bu boradagi bilimlar qanchalik obyektiv va chuqur bo'lsa, uning zamirida yuzaga kelgan qadriyatlar ham shunchalik ustuvor bo'ladi. Ularni egallagan odam mafkuraviy tajovuzlarga munosib zarba bera oladi. Bunga erishish jarayoni nihoyatda serqirra bo'lib, u o'z mohiyatiga ko'ra, yot g'oyalar kirib kelishining oldini olish va ularni yo'qotishga qaratilgan chora-tadbirlar, g'oyaviy-tarbiyaviy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy ishlar majmuini o'z ichiga oladi.

Toffler jamiyat hayotidagi strategik o'zgarishlarni tahlil qilishda futurolog sifatida yondashadi. Uning insoniyat istiqboliga ta'luqli fikr-mulohazalari bir qancha siyosatchi va faylasuflar tomonidan tanqid qilingan bo'lsada, uning qarashlarida sivilizatsiyaviy o'zgarishlarga dahldor haqiqatlarni ma'lum unsurlari mavjudligini anglab olish mumkin. Tofflerning deyarli barcha asarlarida jamiyatning taraqqiyot an'analari haqida fikr-mulohazalar ilgari surilgan bo'lib, ulardagi zamonaviy ruhiyat har bir kitobxonni o'ziga mahliyo etib qo'yish xususiyatiga ega. Aynan shuning uchun ham Toffler tamaddun bashoratchisi sifatida bir qancha siyosatchi va faylasuflar tomonidan e'tirof etiladi.

Toffler insoniyat sivilizatsiyasining murakkab ahamiyat kasb etishini nafaqat sotsiologiya yoki falsafa doirasida balki, psixologik masalalar bilan bog'lab tushuntirishga harakat qiladi. Shu ma'noda uning futurologik konsepsiyasi ham o'zida inson ruhiyatidagi yangiliklar oqimiga bo'lgan moslashish nuqtai-nazaridan

tahlil qilinadi. Tofflarning asarlarida asosan quyidagi ijtimoiy va futurolog ahamiyatga ega bo'lgan masalalar tahlil qilinganligini ko'rish mumkin: insoniyat yangi sivilizatsiyaga qadam qo'yay ekan bu sivilizatsiyada oilaviy munosabatlarni yangi shakllari yuzaga keladi, ishlab chiqarishning yangi shakllari va texnologiyasiga asos solinadi, siyosat sohasida tub o'zgarishlar sodir bo'ladi, insonlarning psixologik munosabatlari murakkab o'zgarishlarni o'z ichiga qamrab oladi, mamlakatlar o'rtasidagi barcha sohalardagi aloqalar global ahamiyat kasb etadi, madaniyatlar va milliy urf-odatlar, turli dinlar hamda ma'rifat maskanlarining faoliyati tub o'zgarishlarga yuz tutadi.

Elvin Tofflarning "Uchinchi to'lqin" asarida ifodalangan g'oyalar taniqli olim va faylasuflar tomonidan ijobiy qabul qilinib, hatto bu asar o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra "Kelajakning yangi konfiguratsiyasi" sifatida e'tirof etildi. Toffler g'oyalarida mamlakatimiz taraqqiyoti uchun ham kerak bo'ladigan fikr-mulohazalar uchray turadi. Buni biz uning kapitalizm, sotsializm va boshqa shu kabilarni taraqqiyotga to'siq bo'ladigan jihatlarni ochib berganligi bilan izohlashimiz mumkin. Toffler o'z qarashlarida ijtimoiy hayotdagi murakkabliklar ularning yuzaga kelishiga turtki bo'lgan omillar xususida batafsil to'xtalib o'tadi. Shuningdek insonlarni ruhiy holatlaridagi o'zgarishlarni tadqiq qilib, ularni har qanday o'zgarishlarga moslashuvchanlik xususiyatlarini psixologik jihatdan ochib beradi. Toffler jamiyatdagi yangi ijtimoiy murakkabliklar, ijtimoiy konfliktlar, global muammolarni yuzaga kelishining sabab va oqibatlarini haqida ham maxsus to'xtalib o'tadi. Toffler boshqa sotsiologlardan farqli ravishda zamonaviy jamiyat haqida fikr yuritib jamiyat taraqqiyotini hozirgi bosqichini o'zida ifoda etgan sotsiologiya uchun yangi atamalar hisoblangan "transindustrial", "postiqtisodiy", "superindustrial jamiyat" kabilarni ilmiy muomlaga kiritadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Tofflarning uchinchi to'lqin jarayonida insonlarning ijtimoiy turmush tarzi tubdan o'zgaradi, ya'ni bunda shaxsning ehtiyojini qondirishga katta e'tibor beriladi, degan xulosaga keladi. Bu esa o'z navbatida insonni bilish qobiliyatini o'zgartirib, uni ijodkorlik tomon yo'naltiradi. Oxir oqibat esa insonda shijoatkorlik, uddaburonlik, tadbirkorlik, tashabbuskorlik kabi ijobiy axloqiy sifatlar shakllanadi deb ta'kidlaydi.

Umuman olganda Toffler uchinchi to'lqinning faqat ijobiy sifatlarini ko'rsatib qolmasdan, unda yuzaga keladigan ijtimoiy nizolarga ham alohida to'xtalib o'tadi. Undan quyidagicha xulosaga kelish mumkin. XX asrdagi ijtimoiy-siyosiy va g'oyaviy mazmundagi ulkan muvafaqqiyatlar bilan bir qatorda asrning buyuk kamchiligi turli qutblar, tizimlar orasida murosasiz g'oyaviy-siyosiy kurashlarning avj olishida namoyon bo'ldi. Natijada insoniyat avlodlari turli e'tiqodiy

ko'rsatkichlar asosida qarama-qarshi guruhlar vakili sifatida ko'zga tashlana boshladi. O'tgan asrdagi inqiloblar, qurolli to'qnashuvlar, ko'psonli talafotlar insoniyatni birgalashib buzg'unchi g'oyalarga qarshi kurashishga chorladi. Tofflarning insoniyat sivilizatsiyasining o'tmishinigina emas, balki uning kelajagidagi voqea va hodisalarni bashorat qilib, insoniyatni yashash tarzi yanada murakkab ahamiyat kasb etishini bashorat qiladi. Shu ma'noda Toffler dunyo jamoatchiligiga futurolog sifatida ham yaxshi tanish bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shavkat Mirziyayev Konstitutsiya erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustshkam poydevoridir//Prezident Shavkat Mirziyayevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi
2. Toffler E. Tretya volna: Per. S angl. / E.Toffler. –M.: OOO "Izdatelstvo AST", 2004.
3. Toffler E. Shok budushhego: Per. S angl. / E.Toffler. –M.: OOO "Izdatelstvo AST", 2004.
4. Falsafa: qomusiy lug'at (Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov). –Toshkent: Sharq, 2004. –B. 332.